

“ARBA‘IN” (NAVOIY) VA “HIKMAT SADOLARI” (ABDULLA ORIPOV)
ASARLARINING QIYOSIY BADIY TALQINI

Batirova Nazokat Baxtiyorovna
Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Arba‘in” asarida keltirilgan ayrim hadislar va Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” misolida qiyosiy tahlili masalasiga e‘tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Arba‘in, hadis, hikmat sadolari

Alisher Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiyning “Chihil hadis” ini “Arba‘in” nomi ostida hadis matnining arabcha asliyatini saqlagan holda tarjima san‘ati asosida hadis mazmuni singdirilgan she‘riy matni turkiy tilga o‘giradi.

Alisher Navoiy “Arba‘in” ni turkiy tilga tarjima qilar ekan, avvalo hadislariga bo‘lgan ulug‘ e‘tiqodini va Jomiyga bo‘lgan chin muhabbatini izhor etgan. Ikkinchidan bu mo‘tabar hadislardan turkiy zabon o‘quvchilarini bahramand qilishni chin dildan xohlagan va shuning uchun ham tez kunda bu asarni o‘zbek tilga to‘rtliklar orqali tarjima qilgan.

Alisher Navoiyning arba‘ini ustoz Abdurahmon Jomiy arba‘inining turkcha tarjimasi bo‘lib, “Asar an‘anaviy hamd va na‘t bilan boshlanadi. Muqaddima-Sababi ta‘limi manzuma” da Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiy sahih hadislaridan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda “Arba‘in” yaratganini, lekin kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiy ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganini yozadi.

Haj safarida bo‘lib qaytgan shoir Abdulla Oripov kitobxonlarga o‘zining yangi to‘plami “Haj daftari” ni tortiq qildi. Kitobdan safar bilan bog‘liq bir necha she‘r hamda “Hikmat sadolari” deb nomlangan turkum joy olgan.

Ma‘lumki, hadis-Muhammad payg‘ambarning ummatlariga qoldirgan muqaddas ko‘rsatmalari, musulmonchilik haq-huquqlari, toat-ibodat, odob-axloq, qoidalarini qamrab oladi. Islomning ilk davrlaridanoq hadislar musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan. Va ularga amal qilish har bir musulmon uchun farz bo‘lgan.

Hadislarni targ‘ib qilishning yana bir yo‘li ularni she‘riy yoki nasriy usulda sharhlashdir. Bunday usul Sharqda keng tarqalgan bo‘lib, adabiyot tarixi hadislar asosida yaratilgan bir qancha asarlarni biladi. Chunonchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Imom Yahyobin sharaf an-Navaviy singari shoirlarining “Arba‘in hadis” lari fikrimizning dalilidir.

Bu majmualarning barchasi Muhammad payg‘ambarning “Kimki ummatlarimga din xususidagi qirq hadisni yetkazsa, tangri taolo uni qiyomat kuni faqh (huquq)

bilimdonlari, olimlari to‘dasiga qo‘shadi” , degan hadisi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, ularda qirq hadisning sharhi beriladi.¹ “Arba‘in” nomi bilan mashhur bo‘lgan asarlar “Ulusdun-Din” (Islom dinining asoslari va tub qoidalari), “Jihad” (Islom yoki Alloh yo‘lidagi muqaddas kurash), toat-ibodat yoki odob axloq asoslarini qamrab oladi va targ‘ib qiladi”²

Ellik hadisning Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan she‘riy sharhi xx asrning so‘nggi choragida ana shunday an‘anani o‘zbek adabiyoti misolida davom ettirish yo‘lidagi ilk urinishdir. Milliy istiqloлга erishilishi natijasida asriy qadriyatlarning tiklanishi, islom diniga bo‘lgan qiziqishning yana ortishi, uni o‘rganish, targ‘ib qilish, amalda din tartib-qoidalari, ko‘rsatmalaridan foydalanish yo‘lidagi har qanday cheklanishlarga barham berilishi har yili bir guruh musulmonlarning haj safarida bo‘lishiga imkon yaratadi. Bu musulmonlar orasida shoir Abdulla Oripovning ham borligi ana shunday turkumning yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Turkum shoirning o‘z e‘tiroficha, Kabatulloh-Olloh uyi yonida tug‘ilgan. Demakki, bu o‘n ikkiliklar hadislarning shunchaki quruq sharhi yoki she‘riy bayoni emas, balki jonli ijod jarayonida yuzaga kelgan mustaqil badiiy asarlar hamdir. Zero, she‘riy hadislar yaratish an‘anasi ham ana shunday poetik mukammallikni talab qiladi.

Sharq she‘riyatida yaratilgan “Arba‘in” larda avval hadisning arabchasi, so‘ng forschasi yoxud turkiy tarjiması keltiriladi-da, keyin she‘riy (nasriy) sharh beriladi. Abdulla Oripovda esa hadisning asl shakli keltirilmay, bevosita she‘rning o‘zi berilaveradi. Bu ham shoirning maxsus tayyorgarlıksiz ilohiy ilhom natijasida mazkur turkumni yaratganligini ta‘kidlaydi. Abdulla Oripov, hadislarni yaxshi biladi va buni uning o‘zi ham e‘tirof etadi: “Satrlarim o‘z-o‘zidan quyilib kelaveradilar. Hadislarning barchasi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom suxanlari bilan bevosita bog‘liq” edi. Balki shu boisdır, Abdulla Oripov she‘rlarida birdaniga bir necha hadisning sharhini ko‘rish mumkin. O‘tmish “Arba‘in” larida esa bitta hadis keltiriladi va shu hadisning sharhi beriladi. Masalan, “Rioya” she‘riga bir yo‘la sakkiz hadis mazmuni singdirilgan. Shuniyam aytib o‘tish kerakki, klassik shoirlar qirq hadisni she‘rga solganlar. Abdulla Oripovda esa ellik ta (aniqrog‘i, she‘rlar soni 49 ta, ammo bu raqam hadislar soniga teng emas). Turkum “Hikmat sadolari” (ellik hadis) deb nomlangan bo‘lsa-da, negadir kitobda ularning soni 49 ta.

Abdulla Oripov har bir she‘riga alohida nom beradi. Bu she‘rlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning ayrimlari biror kichik voqeani bayon qilsa, (Masalan, “Jon achchig‘i”, “Azroil”, “G‘iybat”, “Haj” kabi), ayrimlari shoirning hadis mazmunini aks ettirgan his-tuyg‘u, fikrlaridan iborat. (Masalan, “Savob”, “Tenglik”, “Ro‘za” kabi).

¹ Arba‘in-arabcha “qirq” degan ma‘noni bildiradi.

² Ahad Qobil, Mahmud Olloberdi. Alisher Navoiyning “Arba‘in hadis” kitobida muqaddima. -Toshkent: “Yozuvchi”, 1991.5-bet.

Alisher Navoiy “Arba’in” da esa voqea band she’rlar deyarli uchramaydi. Shoir “Arba’in” lar yaratishning klassik poetikada shakllangan qat’iy qolipi asosida ish ko’rmagan. Umuman, olganda esa: “Mutloq, badiiy qonuniyatlar yo‘q. Badiiy ifoda shakllari, janrlar va uslublar, ma’nolar yo‘nalishlar tug‘iladi va o‘ladi, ular bir-biridan o‘sib chiqadi, ba‘zan gibritlarni yuzaga keltirgan holda chatishadi, bir-biri bilan musobaqalashadi, barham topadi yoki sintez ko‘rinishida yangidan vujudga keladi”³

Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” turkumi ham payg‘ambar hadislari sharhlariga asoslangan, uzoq tarixga ega klassik an‘ana va xx asr o‘zbek she‘riyatidagi izlanishlarning sintezi sifatida vujudga kelgan.

Abdulla Oripovning “Hadis” lari esa klassik an‘analarining butunlay yangi bir davr sharoitida, ayniqsa, o‘rtadagi juda katta vaqt, ijtimoiy, adabiy o‘zgarishlar, evrilish va yangilanishlar, jarligidan so‘ng davom ettirilishi natijasida butunlay yangicha mazmun kasb etdi.

Alisher Navoiy to‘rtliklarida voqeabandlik deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Quyidagi misol fikrimizning dalilidir:

Alisher Navoiy:

“Laysash-shadida bissur‘atin innamash shadidu man yamliku nafsahu ‘indalg‘azab”.

Tarjimasi: “Kurashda g‘olib kelgan kuchli emas, g‘azab paytida o‘zini bosa olgan kishi kuchlidir”.

Emas ul pahlavonga o‘z qadrin
Bosh uzra etibon zabun qilgay.
Pahlavon oni bilki, yetsa g‘azab
Nafsi ammorani zabun qilg‘ay.

Abdulla Oripovda:

Pahlavon

Bir suhbat chog‘ida hazrat payg‘ambar
O‘rtaga tashladi savol nogahon
Aytdilar:-Zarurat tug‘ilsa magar
Kimni atardingiz asl pahlavon?
Sahobalar dedi:Har kim doimo

Chekiga tushganni kelgandir olib
Kurash maydoniga chiqqanda, ammo
Pahlavon sanalgay kim bo‘lsa g‘olib.
Rasululloh dedi:-Ko‘hnadir jahon,
Turfa xil kuch-qudrat bordir olamda.

³ Mejelaytis.E

Lekin o‘z jahlini yengolgan inson
Haqiqiy pahlavon erur olamda.

Ko‘rinib turibdiki har ikki she‘rda ham bir hadis mazmuni berilgan. Ammo Navoiyda savol-javob sahnasi yo‘q. Abdulla Oripovda payg‘ambar va sahobalar o‘rtasidagi munozarani berish orqali maqsadga erishilgan. Demak, ana shunday voqea bayoni kattaroq she‘riy shaklni talab qilayotir.

Hadislarni xoh nasriy, xoh she‘riy sharhlashdan maqsad ularning mazmunini keng ommaga yetkazish, dinning asosi, qonun-qoidalari, odob-axloq mezonlari bilan xalqni tanishtirishdir. Shunday ekan, bu yo‘nalishdagi turkumlar, ma‘lum ma‘noda, shoir yashab turgan davr kitobxonlari uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Binobarin, Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan to‘rtliklar bugungi keng o‘quvchilar ommasi uchun yetarli darajada emas. O‘rtadagi lisoniy tafovutlar bunga monelik qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning:

Hirsdan kechgil, ul g‘ami dururkim,
Haddu g‘oyat emas anga paydo.
Tut qanoatkim, ul erur mole
Ki nihoyat emas anga paydo,-

To‘rtligidan ko‘ra Abdulla Oripovning “Ro‘za” she‘ri bugungi o‘quvchiga ko‘proq tushunarlidir. Mana o‘sha she‘r:

Ro‘za

Ramazon oyida, hayit chog‘ida,
Sumalak pishirdi ahli musulmon.
Unni quvurdilar zaytun yog‘ida,
Halim tayyorladi kimda bor imkon.
Bahor keldi mana, qishdan chiqoldik,
Bergan rizq-ro‘ziga, ne‘matga sharaf.
Tog‘dayin zahmatni oxir yiqoldik,
Tabiatga sharaf, himmatga sharaf.
Ro‘zadan chiqqanlar, Sizga ham rahmat
Farzingiz sinovli saodat erur,

Rasululloh demish:-Sabr qil ummat,
Mo‘minlik belgisi qanoat erur.

Ayni paytda Abdulla Oripov “Qanoat” tushunchasini diniy ro‘za istilohi bilan bog‘lab, mazmunan boyitadi. Chunki ro‘za-musulmonning qanoati uchun bir sinov. Bunday sinovdan o‘tganlar esa jannat sari bir odim tashlaydilar. Aytish joizki, Alisher Navoiyda aksariyat hollarda ikki misra hadisning asl ma‘nosi va ikki misra shoirning fikri (obraz, mazoj) keladi. Abdulla Oripov esa, ko‘pincha, hadis mazmunini butun she‘rga-voqealar, tuyg‘ular tasviriga singdirib yuboradi, ba‘zan voqea yoki his

tuygʻulari tasviridan keyin hadis mazmunini keltiradi. Masalan, “Gʻiybat”, “Savob”, “Kibr”, “Tavba” sheʻrlarida shunday hol kuzatiladi.

Badiiy asar, unda dolzarb, umuminsoniy, zarur fikr va gʻoyalar qalamga olinishidan qatʻiy nazar, badiiy jihatdan yetuk boʻlmasa oʻquvchilar qalbini zabt etolmaydi. Bunday badiiylikni esa, qisman, sheʻriy sanʻatlar taʻminlaydi. Gap faqat nimani aytishda emas, balki qanday aytishda ekanligi ham chin adabiyotning shartlaridan biridir. Biroq, har qanday goʻzal shaklda chuqur maʼno joylarni ekan, bunday asar ham nomukammal boʻlib qolaveradi. Shu jihatdan qaralganda Abdulla Oripov sheʻriyati katta maʼno va goʻzal shakl uygʻunligidan iborat. Binobarin, “Hikmat sadolari” haqida ham shunday deyish mumkin.

Abdulla Oripov uzoq oʻtmishda qolib ketgan anʻanaga murojaat qilib, mazmun va shaklan mutlaqo yangicha turkum yaratdi. Umuman olganda, shoir ushbu turkumi bilan yaʼni oʻzbek adabiyotida yangi bir yoʻnalishni boshlab berdi.

“Arbaʼin” asarining gʻoyaviy ahamiyati shundaki, hadislar insonni chin insoniy fazilat va axloqiy sifatlarga ega boʻlishga daʼvat qiladi. Iymon va eʼtiqod pokligini saqlashdek moʻtabar ishga undaydi. Zero, “Qurʻon” oyatlari va Muhammad paygʻambar hadislarini, avvalo, iymon va eʼtiqod pokligini targʻib qiladi va ulugʻlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ilxom Gʻaniyev, Nodira Afoqova. Abdulla Orif falsafasi. “Muharrir” nashriyoti. Toshkent-2021.
2. Ahad Qobil, Mahmud Olloberdi. Alisher Navoiyning “Arbaʼin hadis” kitobi. Toshkent “Yozuvchi” nashriyoti.1991.
3. Hoji Abdulla Orif. “Haj daftari”, “Hikmat sadolari” Toshkent.1992.
4. Nurbor Jabborov. “Maoniy ahlining sohibqironi” Monografiya.Toshkent “Adabiyot” 2021.
5. Suyima Gʻaniyeva.Alisher Navoiy “Arbaʼin”.Matnni nashrga tayyorlovchi-Toshkent. “Fan”.2000.